

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal



www.inno-world.uz

+998 33 0178868



Ona degan issiq jondi - ya ...

Maxmudjonova Nargizaxon Muxammadjon qizi
Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi
3- bosqich talabasi

KALIT SO‘ZLAR

hikoya, kelishik, ko‘plik shakllari, fe‘l so‘z turkumi, yasovchi affikslar, emotsional ekspressiv shakllar.

Ushbu maqolada Elbekning „Ona ” nomli hikoyasi til xususiyatlari jihatidan tahlil qilish orqali yozuvchining o‘ziga xos uslubi ko‘rsatib beriladi.

Elbek – 20 - asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan ko‘p qirrali ijodkor: shoir yozuvchi, folklorshunos, tilshunos, mohir pedagog. Uning asli ism - sharifi Mashriq Yunusov bo‘lib, „Elbek” adabiy taxallusidir. U qisqa umri davomida ko‘plab badiiy, ilmiy - pedagogik, filologik mazmundagi asarlar yozib qoldirdi². Xususan, uning bir qator hikoyalari adabiyotimizda o‘z o‘rnini egallagan. Ayniqsa, Elbekning „Ona” nomli hikoyasi alohida ahamiyatga egadir. Quyida biz asarni to‘laqonli ravishda tahlil qilishga harakat qilamiz.

ANNOTATSIYA

So‘z	Ma’nosi	Asarda qay tarzda qo‘llangani	Qo‘shimchasi	O‘zgarish bor yoki yo‘qligi
Tovush	ovoz, sado, sas	tovish		asosda, u//i fonetik hodisasi kuzatilgan
Jonivor	joni bor, tirik. Mavjudot (o‘simlikdan tashqari)	jonvor		Asosda bir I qisqa unlisi tushirilgan. Izohli lug‘atda ham shu tarzda yozilgan. جانور.
Yolg‘izlik	O‘zi bilan o‘zi bo‘lishlik, yakkalik, tanholik.	Yolg‘uzlik.	- lik(mavhum ot yasovchi qo‘shimcha	I//u fonetik hodisasi kuzatilgan
Ko‘p	Son, miqdor jihatidan, me’yordan yoki nisbatan ortiq.	Ko‘b		P//b fonetik hodisasi kuzatilgan

² Ne‘matova D. O‘zbek ilmiy tilshunosligi. T, 2020. 116 b.

Yarogʻ	Hujum yoki himoya qilish uchun ishlatiladigan asbob: qurol, aslaha .	yarogʻ(yoʻl yarogʻi- yoʻlda kerak boʻladigan narsalar		
boyaqish	toʻgʻrisi: boyoqish-achinish uygʻotuvchi holatli, bechora, shoʻrlik ³	boyaqish ona tarzida qoʻllangan		Aslida izohli lugʻatda ham bu soʻzning boyaqish va boyoqish kabi shakllari keltirilgan
Erksizcha	erk- ixtiyor, mayl	Erksizcha	Erk asos+siz (sifat yasovchi qoʻshimcha biror narsaga ega emaslik)+ cha (ravish yasovchi qoʻshimcha).	

Asarda yana kelishik qoʻshimchalarining ham xilma-xil shakllaridan foydalanilgan: ertagʻa, tebrasigʻa, koʻngliga, yostiqa, (joʻnalish kelishigi); joʻnashin, oʻqushin, boshin, bolasini (tushum kelishigi). Yozuvchi koʻplik qoʻshimchasining ham xilma-xil maʼnolarini ham qoʻllagan. *Kunduzgʻi tovishlar ham quyosh soʻngidan sekin - sekin yoʻqola boshladilar* . Ushbu gapda - lar qoʻshimchasi sof koʻplik maʼnosini bildirgan boʻlib, kunduzda boʻladigan tovushlar, eshitiladigan tovushlar maʼnosida qoʻllangan. ... *Koʻzlariga yosh keltirmay qoʻymadi* - juft aʼzolarga (koʻz bir juft yaʼni ikkita boʻladi, koʻz deb aytilganda ham aynan ikki koʻz tushuniladi) qoʻshilganda esa kuchaytirish - taʼkid maʼnosini yuzaga keltirgan. *Uning koʻngli endi sevinchlar bilan toʻlgan edi* - mavhum ot (sevinch) ga qoʻshilib, kuchaytirish - taʼkid maʼnosi bildirib kelgan - lar koʻplik qoʻshimchasi. Kungʻi, kunduzgʻi kabi soʻzlar esa sifat soʻz turkumiga mansub boʻlib, sifatning makon - zamon turiga kiradi (-qi / - ki // - gʻi/ - gi affiksi payt va oʻrin bildiruvchi soʻzlarga qoʻshilib, paytga, oʻringa munosabatni, xoslikni koʻrsatadi). Olmoshning ham koʻrsatish turiga mansub oʻshal soʻzi qoʻllangan boʻlib, *oʻshal olmoshi ush (osh) taʼkid yuklamasi va ul (ol) koʻrsatish olmoshining birikuvidan tashkil topgan tarkibli olmoshdir: osh (oʻsh) + ol > osh (oʻsh) + al > oshal (oʻshal)*⁴. Feʼl soʻz turkumiga oid eng

³ Ўзбек тилининг изохли лугати биринчи жилд. - Т.: „Ўзбекистон миллий энциклопедияси “ Давлат илмий нашриёти, 347 б.

⁴ Abdurahmonov Gʻ, Shukurov Sh, Mahmudov Q. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. - Т.: Oʻzbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti, 2008. 150 b.

xarakterli soʻz shakllari sifatida yotgʻon, ketkaninda turgʻonin, minadurgan, koʻmaklashguvchi, qovurilgʻon, sogʻintirmagʻil, ezguvchi, tugatgʻach, oshiqqanicha, sevintirmak, biladir kabi shakllarni olishimiz mumkin boʻladi.

Endi esa hikoyada eʻtibor qaratilishi kerak boʻlgan oʻrinlarni koʻrib chiqish oʻrinlidir:

- hayqiriq gʻavgʻosi

- hayqiriq soʻzi shodlik, hayajon, gʻazab, azob kabi kuchli tuygʻularni, shuningdek, chaqiriq, haydash kabilarni ifodalaydigan qattiq ovoz, nido demakdir.

Bu soʻzning gʻavgʻo soʻzi bilan birgalikda moslashuv munosabatli soʻz birikmasiga kirishuvi taʻkif maʼnosini kuchaytirib bergan. Gʻavgʻo soʻzi esa betartib ovozlarda degan maʼnoni bildirib, aynan matnda betartib qattiq ovozlarda maʼnosini bildirgan desak adashmagan boʻlamiz: ... hayqiriq gʻavgʻosi uning koʻngliga boshqacha taʻsir bera boshladi. Bu gapda tasir bera boshladi soʻzi ham odatdan tashqari qoʻllangan, yaʼni taʻsir qila boshladi shaklidan farqli ravishda avval unchalik taʻsir qilmagan, endi esa dalaning yoqimli havosi, qushlarning mungli tovishi, kishilarning hayqiriq gʻavgʻosi qahramonga oʻzgacha taʻsir bera boshladi, chunki qahramon ertaga oʻqishga ketishi kerak.

- Ertadan beri uning xayoli bir masala ustida bogʻlangan, yuragi esa allanarsadan inglagan edi. Ing - chaqaloqning yigʻisiga oʻxshash ovoz. Bu gapda inglagan soʻzini oʻzi bilmagan holda yuragi yigʻlashga moyil hamda siqilgan deya olishimiz mumkin boʻladi.

- Kunning kech boʻlib borishi Yoʻldosh bilan basma - bas oʻynashgan kabi koʻrinardi: kunning kech boʻlishi, kunduz vaqtning oʻtib borishi goʻyoki qahramon bilan, qahramon harakatlari bilan tengma - teng oʻynashayotgandek koʻrinadi.

- yapaloq qush - boyoʻgʻli, boyqush.

-Yolgʻuzlikda oʻqushin oʻylardi. Yolgʻizlikda oʻzi yolgʻiz qolib oʻqishini emas, balki oʻqishda oʻzi yakka boʻlishini oʻylardi.

-Ul yoshlikdagi hollaridan tortib,... Yoʻldosh yoshlik holi (hayotdagi muayyan bir holat, vaziyat ahvol) dan boshlab oʻylab chiqdi.

- tebrasigʻa qaradi - tevarak - atrofiga qaradi.

- Yoʻldosh yoʻlga tayyorlana boshladi. Qoʻliga bir tayoq oldi. Qahramon oʻqishgacha ancha yoʻl bosishini bilib, qoʻliga tayoq oladi, oʻnqir - choʻnqir yoʻllarda tayoq unga biroz boʻlsa-da yordam beradi. Qadimda ham ota - bobolarimiz uzoq safarga chiqishdan oldin qoʻllariga uzun tayoq olishgan yoʻlda qiynalib qolmasliklari uchun.

- Belbogʻiga ikki - uch non soldi - da beliga bogʻladi. Endi ul bu ikki yoʻl yarogʻi bilan uzoq safarni chogʻladi. Ikki yoʻl yarogʻi nima. Birinchi yoʻl yarogʻi bu tayoq boʻlsa, ikkinchisi sifatida non nazarda tutilgan. Yarogʻ esa yoʻlga kerak boʻladigan narsalardir.

- Kishi degan issiq jondi - ya... Kishi degan issiq jon (issiq tana qachon sovib qolishini bilmaymiz) boʻladi maʼnosida.

- Uzoq vaqt o'tmas, men sening bag'ringda o'ynarman... O'qish vaqti, albatta nisbiy tushuncha, u uch yoki to'rt yildan keyin yakunlanadi. Va Yo'ldosh nutqida uzoq vaqt emas, balki yana bag'ringa qaytishimga oz fursat qoldi degan ma'no nazarda tutilgan.

- ... Yaproqlar ichra qizarib ko'ringan tuproq to'plami - muallif ona vafot etganini ayni shu so'zni ishlatgan holda o'z qayg'usini bildirgan go'yo. Chunki tuproq to'plami bu qabr deganidir va muallif hattoki shu so'zni mushtipar onaga nisbatan qo'llay olmagan. Bundan oldin ifoda etilgan *onang o'ldi* degan so'z esa Yo'ldoshning otasi tomonidan bayon etilgan va bunda hissiy bo'yoq deyarli sezilmagan. Muallif nutqida esa achinish hissi yuqori darajada bildirilgan. Bu holat esa yozuvchining ulkan mahoratidan darak beradi. Ushbu hikoyada qaysidir ma'noda muallif o'zi yuqorida qo'llab o'tgan iborasini ham izohlab bergandek. Ona o'g'lining visolidan bahramand bo'lishni xohlaydi, ona uchun ayriliq azobi juda qiyin kechishi bu tabiiy holdek farzandiga: „ Hozir issiq turgan tanim, hijroningda sovushi hech gap emas, sensiz ado bo'laman degandek ". Va issiq taft berib turgan tana ham tez fursatda tuproq to'plamidagi (qabr tan tuproqqa qo'yiladi va ustiga tuproq tortiladi. Tuproq uyib qo'yilgani uchun ham tuproq to'plami deyilgan) sovuq tanga aylanib qoldi. Biz Elbekning birgina „ Ona " hikoyasi orqali ijodkor qo'llagan poetik til unsurlarining va ular orqali ifodalangan mazmunning betakrorligini tahlil qilish asnosida ijodkorning leksik so'z boyligiga, so'z qo'llay olish mahoratiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Ne'matova D. O'zbek ilmiy tilshunosligi. - T, 2020.
2. Ўзбек тилининг изохли лугати. 4 жилдли.
3. Abdurahmonov G', Shukurov Sh, Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti, 2008.
4. Элбек. Танланган асарлар. Т.: „ Шарк" Нашриёт - Матбаа Концерни Бош Тахририяти, 1990. 180 - 182 б.